

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-Sentabr

ANDIJON, 2024

TALABALARING MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

*Shamuratova Eleonora Aralbaevna
NDPI qoshidagi akademik litsey*

Talabalar mustaqilligini kuchaytirish, o‘quv materialining mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan, shuningdek, nazorat xarakteridagi vazifalarning yanada individualashuvini ko‘zda tutuvchi talablar mustaqil ta’limining axborot-kommunikativ shakliga o‘tish tendensiyasi jamiyat rivojidagi o‘zgarishlar, axborotlashtirish jarayonining faollashuvi bilan belgilanadi. Mustaqil ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalar uchun bosma adabiyotlar bilan bir qatorda o‘rgatuvchi dasturlar, test tizimlari, ma’lumotlar bazalari va boshqa elektron resurslar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. Barcha elektron nashrlar talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda tayanch vazifasini bajarishi mumkin bo‘lishiga qaramasdan, bular ichida multimedialilari eng samarali hisoblanadi [2].

Talabalar mustaqil ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi ko‘p jihatdan material mazmuni va avtomatlashtirilgan ta’lim tizimlaridan foydalanish usuli bilan bog‘liq bo‘lgan metodik xarakteridagi vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishiga bog‘liq. Shuning uchun mustaqil ta’limda konkret o‘quv dasturi mazmuni bo‘yicha yaratilgan dasturiy-uslubiy majmualar ko‘rinishidagi avtomatlashtirilgan ta’lim tizimlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizimlar tarkibiga turli elektron kitoblar, o‘tilgan materialni takrorlash yoki bilimlarni tizimlashtirish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturlar, masofadagi axborot resurslariga murojaat qilish dasturlari, bilimlarni nazorat qilish, malaka va ko‘nikmalarni baholashning avtomatlashtirilgan tizimlari va boshqalar kiritilishi mumkin.

Elektron o‘quv adabiyoti – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni muloqot usulida taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan manbadir. Elektron o‘quv adabiyotlari turli kategoriylar bo‘yicha tasniflanib, bularga elektron ma’ruza matnlaridan tortib, elektron darsliklarga bo‘lgan o‘quv maqsadidagi barcha elektron nashrlar misol bo‘ladi. Bular orasida elektron darslikning o‘quv jarayonida o‘quv materiallaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadigan o‘quv vositasi sifatida alohida o‘rni bor. Tajribadan ma’lumki, inson eshitish a’zolariga nisbatan ko‘rish a’zolari yordamida olingan ma’lumotlarni 5 marotaba kuchliroq eslab qolishi mumkin. Eshitish a’zolaridan farqli ravishda, ko‘rish a’zolaridan olinayotgan ma’lumotlar qayta kodlashtirilmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xotiraga o‘tadi va uzoq saqlanadi.

Elektron darslik an’naviy darsliklarga qaraganda, o‘quv materiallarini namoyish qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron darslik o‘quvchilarining ko‘proq mustaqil ishlashtilari uchun mo‘ljallangan didaktik funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o‘quv jarayoniga qo‘yilgan barcha talablarga javob berishi kerak. Shunday ekan, elektron darsliklarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda ularning pedagogik tomonlaridan tashqari, psixologik va gigienik tomonlarini ham e’tiborga olish talaba va o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini va ularning bu jarayonda faol ishtiroy etishini ta’minlaydi. Elektron darsliklar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish o‘quv materiallarini fanning so‘nggi yutuqlari asosida tezkor yangilab borish va shunga o‘xshash bir qator afzalliklar tug‘diradiki, an’naviy darslikdan elektron darslikning ustunligi uning «intellektual» kuchga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, ma’lumotlarni o‘z vaqtida va kerakli joyda taqdim etish imkoniyatiga ega ekanligida yaqqol seziladi.

Elektron darslik ma’lum bir predmet bo‘yicha barcha tegishli o‘quv materiallarini o‘zida ifoda etgan bo‘lishi kerak, uning intellektual darajada bo‘lishi esa o‘z navbatida oddiy darslikka nisbatan bir qator afzalliklarni tug‘diradi. Masalan, ma’lumotlarni tez izlab topish, mavzularni o‘zlashtirish darajasini multimedia va grafika elementlari yordamida amalga oshirish va hokazo.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-Sentabr

ANDIJON, 2024

Har bir elektron darslik alohida ko‘rinishda bo‘lishi va ma’lum bir standart talabiga javob berishi lozim. Elektron darslik kompyuterli o‘quv uslubini qo‘llashga va fanga oid o‘quv materialining har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga asoslangan o‘quv adabiyoti bo‘lib, to‘rtta darajadan bittasiga taalluqli bo‘lishi mumkin [3].

1-daraja: o‘quv materialini faqat verbal (matn) ko‘rinishida taqdim etadigan elektron darslik;

2-daraja: o‘quv materialini verbal (matn) va grafik (tasvirli) shaklda taqdim etadigan elektron darslik;

3-daraja: multimedia darsligi, ya’ni ma’lumot uch o‘lchamli grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida taqdim etiladigan multimediali elektron darslik;

4-daraja: material ovozli va uch o‘lchamli fazoviy ko‘rinishda bo‘lib qolmasdan, taktik (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatlari ma’lumotlar vositasida bayon qilinib, o‘rganuvchini «ekran olamida» stereonusxasi tasvirlangan real olamga kirish va undagi ob’ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan elektron darslik.

Barcha toifadagi elektron darsliklar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda va talabalarning mustaqil bilim olishlari hamda masofadan o‘qitishni tashkil qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Elektron darslikdan foydalanishdan asosiy maqsad – yangi axborot, ta’lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim jarayonining samaradorligi, sifati va unumdarligini oshirish, uzlucksiz ta’lim tizimi- da zamonaviy o‘quv manbalari, elektron-o‘quv darsliklarini keng qo‘llash, ularning ma’lum ma’noda kutubxonalarini tashkil etish, ta’limning masofadan o‘qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o‘quv tizimiga kirishdan iborat. Yuqorida to‘xtalib o‘tilgan pedagogik maqsadlarga erishish uchun elektron darslik ma’lum didaktik, pedagogik va psixologik talablarga javob berishi kerak.

Didaktik talablarga ilmiylik, o‘zlashtirishning yengilligi, muammoni qo‘yish va har tomonlama asosli tarzda bilim olishlik, o‘qish jarayonida o‘quvchining faol va ongli ishtiroti, bilim olishning tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, bilimni mustahkam o‘zlashtirishning ta’milanishi, ta’lim tizimida bilimni o‘zlashtiruvchi, rivojlantiruvchi, mutaxassis-xodim va tarbiyalovichilar vazifalarining yaxlitligi, o‘rganuvchi uchun o‘qish mustaqil holda bo‘lishining ta’milanishi, o‘qitishning interaktivligi, o‘qitishning uyg‘unligini ta’minalash, o‘quv materialini taqdim etishda tizimli yondashishlar kiradi [4].

Psixologik talablarga elektron darslikning estetik, gigienik va tibbiy-psixologik tomonlarini aks ettiruvchi talablar kiradi. Buning sababi, inson organizmi elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlarni qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini talab qiladi. Ma’lumotlarni qabul qilishda uning faqat mazmuni emas, balki o‘lchami, harflarning ko‘rinishi, rangi va tasvirning harakati kabi omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun elektron darslikning matni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchilarning ma’lumotlarni tez qabul qilishida elektron darslikdagi bunday xususiyatlar, ya’ni, o‘chib- yonish, rangni ajratib ko‘rsatish, tagiga chizib qo‘yish, ovoz kabi vositalar kuchli ta’sir etadi. Bu muammolarni yechish uchun berilayotgan ma’lumotlarning sifatini oshirish va elektron darslikda bir qator imkoniyatlar yaratish lozimki, ular yordamida ko‘pgina parametrлarni o‘zgartirish mumkin bo‘lsin. Masalan, ovozni o‘chirib qo‘yish, pasaytirish, ko‘tarish, ranglarni o‘zgartirish va hokazo [5].

Elektron darslikning samaradorligiga erishish kompyuter bilan o‘zaro muloqotning psixologik tomonlarini hisobga olish asosida amalga oshirilib, ular o‘quv materialini taqdim etish, anglash (kognitiv) jarayonining verbal-mantiqiy, sensor; perspektiv (his qilish, sezish) va

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-Sentabr

ANDIJON, 2024

ifodalanish darajasiga mos kelishi kerak. Shuningdek, anglash bilan bog'liq psixologik jarayonlarga axborotni qabul qilish (asosan, ko'rish hamda eshitish, his qilish), e'tibor qilish (uning turg'unligi, jamlanishi, bir narsadan ikkinchisiga o'tishi, taqsimlash va e'tibor darajasi), fikrlash (nazariy tushuncha, amaliy-ko'rgazmali va amaliy-harakatli), tasavvur qilish, xotira (oniq, qisqa va uzoq muddatli, qisqa muddatli, qisqa muddatli xotirada ma'lumotni joylashtirish hodisasi) va boshqalar; elektron darslik undan foydalanuvchi uchun qulay, fanni o'zlashtirishga ijodiy yondashish va sihat-salomatligi uchun maqbul mehnat sharoitlarini yaratish kabi asosiy talablar kiradi [6].

Bilimni nazorat qilish mexanizmiga elektron darslikda alohida o'rin ajratilishi lozim. Bilimlarni nazorat qilish mexanizmida elektron darslikning hamma mavzulari bo'yicha nazorat qilishni ta'minlash nazarda tutilgan. Buning uchun elektron darslik ma'lumotlar bazasidagi barcha mavzularga oid savollarning hammasi talabalarga qulay ko'rinishda taqdim etilishi zarur. Elektron darslikda berilgan matn bo'yicha uni izlab topish funksiyasining bo'lishi elektron darslikning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bu funksiyaga qo'yiladigan qo'shimcha talablardan biri uning satriga yetarli darajada uzun matnni kiritish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

Elektron darslikda atamalar lug'atining bo'lishi ham undan samarali foydalanish darajasini oshiradi. Shuning uchun atamalar va ular bilan bog'liq ta'riflarni alohida ro'yxat bilan berib, ularni gipermurojaatlar bilan bog'lash qulaydir. Bu yerda atamalar lug'atidan asosiy matnga qaytish tugmalari bo'lishi kerak. Elektron darslik bilan ishlashni boshqarish tizimida matn bilan ishlashni ta'minlaydigan va ekranga qo'yiladigan bir qator tugmalar mavjudki, ular mundarijadan mavzuga o'tish, sahifadan-sahifaga, oldinga, orqaga o'tish, mundarijaga qaytish, yordam olish, ekranga rasmlar, animatsiyalar va har xil ko'rinishdagi jadval, grafiklarni chaqiradigan gipermurojaat tugmalaridan iboratdir.

O'qitishning interaktivligini ta'minlash, o'quv fanlarini o'qitishning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda, ma'lum bir tartibda bajarilishi kerak. Elektron darslik o'rganuvchiga takroriy o'quv-mashq amallarini bajarish va nazorat qilishning turli xil imkoniyatlarini yaratishi lozim [7].

Elektron darslik yordamida amalga oshiriladigan elektron muloqotni tashkil etish tadbirlariga, asosan, amaliy mashg'ulot shaklida o'qitish jarayonini shakllantirish, nazorat qilish, tanlangan javoblarning ma'qulligini tekshirish, matematik hisob, javoblarning to'g'riligini tekshirish, grafik ma'lumotlarning kiritilishini nazorat qilish, cheklanmagan shaklda analitik ifoda kiritilishining nazorati kabilar kiradi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi elektron darslik qaysi darajaga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, uning yaratilishi konkret tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. **Elektron darslik yaratishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat [8]:**

- elektron darslik yaratishning yaxlit ilmiy-uslubiy asoslari va texnikaviy talablarini ishlab chiqish;
- elektron darslik yaratilishi zarur bo'lgan birinchi galdagi ustuvor fanlarni aniqlash;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jihozlash, ularni internet tarmog'iga kiritish;
- ta'lim muassasalarida elektron darsliklar yaratish bo'yicha jamoalar tashkil etish;
- elektron darsliklar yaratuvchilarining mualliflik huquqlarini muhofazalash mexanizmini ishlab chiqish;

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-Sentabr

ANDIJON, 2024

- elektron darsliklar mualliflari, elektron darsliklarni o‘quv jarayoniga tatbiq qiluvchi professor-o‘qituvchilar, mutaxassis- xodimlarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish;
- elektron darsliklarni standartlash va sertifikatsiyalashning tashkiliy-huquqiy asoslarini barpo etish;
- eng yaxshi elektron darsliklarni yaratish va qo‘llash bo‘yicha tanlovlardan uyushtirish, mavjud muammolar bo‘yicha ilmiy-amaliy seminar, konferensiya va boshqa anjumanlar uyushtirish;
- oliy o‘quv yurtlarida va oliy o‘quv yurtlariaro elektron darsliklar jamg‘arma kutubxonasini barpo qilish;
- elektron darsliklarni yaratishda rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish.

ADABIYOTLAR RO‘YYXATI

1. Taylaqov N.I. Elektron darslik yaratishga qo‘yiladigan talablar. // «Xalq ta’limi» jurnali, 2015, 2-son. –17- 20-b.
2. Taylaqov N.I., Usmonov M. Uzluksiz ta’lim jarayonida innovatsion texnologiya- lardan foydalanishning ahamiyati. // «Uzluksiz ta’lim» jurnali, 2013, 5-son. –67- 70-b.
3. Usmonov M. Interaktiv elektron o‘quv kurslar – o‘qitish faoliyatining yangi vo- sitasi sifatida. // «Xalq ta’limi» jurnali, 2011, 6-son. –22-23-b.
4. Djuraev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T.: «Sano-standart», 2010.
5. –87-b.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini jo- riy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. – T.: «Fan», 2017.
7. Begimqulov U.Sh. va b. Ta’limda axborot texnologiyalari: metodik qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi», 2010.
8. www.ziyonet.uz
9. www.natlib.uz
10. www.gazeta.uz